- 2) Praymerlar (20-30 juft nukleotiddan tashkil topgan, unchalik kattalik bwlmagan fragmentlar). Bu praymerlar, wrganiladigan genni oxiridagi nukleotidlari ketma –ketligiga komplementar bwlish kerak. Praymerlar ikki maqsadga xizmat qiladilar: birinchidan, erkin  $3^1$ -uchli ketma-ketlik tag`dim qilib, DNK – polimerazani ishga tushirib yuboradi; ikkinchidan, fermentni DNK ni nusxalanishga tanlangan uchastkasi doirasidagina ishlashga majbur qiladi, fermentni faoliyatini ikki tomondan chegara majbur qiladi, fermentni faoliyatini ikki tomondan chegaralab qwyadi;
- 3) DNK ni yangi komplementar zanjirini sintez qilish uchun material hisoblangan nukleotidlari aralashmasi;
- 4) DNK – polimeraza fermenti;
- 5) Bufer eritmalar ( $Mg^{2+}$ , saqlagan reaktsion muhit, bu muhit fermentni faolligini ushlab turish uchun kerak).

Yana savol tug`iladi: **qanday qilib, yuqorida keltirib wtilgan komponentlar aralashmasidan 4-5 soat orasidan birgina DNK molekulasidan trillionlab nusxa olish mumkin?** Polimeraza –zanjirli reaktsiya, bir-biriga wxshagan kwplab tsikllar (qaytarishlar) kwrinishida wtadi. Har bir tsikl 3 bosqichda wtadi.




2.4-rasm. PTsR ning birinchi tsiklining sxemasi

1–bosqich. DNK ni denaturatsiyasi (qoshish bog`li spiralni, alohida polinukleotidlar zanjiriga ajralishi). Bu jarayon 93-95 °S da 30-40 sekund davom etadi. Yuqori harorat ta`sirida azotli asoslar orasidagi vodorod bog`lari uziladi va DNK zanjirlari ajraladi.

2–bosqich. Praymerlarni bog`lash (gibridizatsiya). Harorat pasaytiriladi va praymerlar wrganiladigan genlar chegarasidagi wziga komplementar bwlgan DNK uchastkasi bilan bog`lanadilar. Gibridizatsiya vaqt – 20 dan 60 sekundgacha.


3–bosqich. DNK zanjirini sintezi. DNK – polimeraza yordamida amalga oshadi. Bu ferment, zatravka sifatida praymerni 3'-uchini ishlataladi. DNK – polimeraza doimo zanjirni 5' dan 3'-uchga qarab qurib boradi. DNK ni yangi zanjirini sintezi uchun material bwlib. eritmaga qoshiladigan nukleotidlar xizmat qiladilar. Bu jarayon 70 -72 °S da wtadi va 20-40 sekund davom etadi. PTsR ni **1-tsikli-oxirida**, eritmada **2 ta ikki zanjirli DNK fragmentlari** bwladi. Ulardan har biri, **1 ta daslabki zanjir** va **1 ta yangi hosil bwlgan**, praymer bilan bog`langan zanjir bwladi. **Ikkinchchi tsiklda amplifikatsiyani** yuqorida aks ettirilgan 3 bosqichni barchasi qaytariladi. DNK zanjirini denaturatsiyasi amalga oshadi. Keyin twrtta zanjirni har biri yana praymerlar bilan wzaro munosabatga kirishadi va nihoyat qidiriladigan genga mos keladigan ikki tomonidan chegaralangan fragment paydo bwladi. Bu fragmentlar – amplikonlar deb atalgan. PTsR ni 2-tsiklilini oxirida 2 ta amplikon paydo bwladi.



2.5-rasm. *PTsR* reaktsiyasining ikkinchi tsiklining sxemasi

### 2.3. DNK ha'm beloklar tiykarinda jaratilgan konstrkutsiyalar.

**DNKdan avtonom ravishda harakatlanuvchi va twxtaydigan nanorobot yasash mumkinmi?** Bu savolga birinchi bwlib javobni AQSh ning Kolumbiya universiteti olimlari bergan. Ular, DNK va oqsildan harakatlanuvchan, harakat ywnalishini wzgartiradigan va twxtay oladigan avtonom molekulyar rabot yaratishga erishdilar. Bu ishlanma, “wrgimchak” (pauk) nanoroboti deb nom olgan. Nanorobotni uzunligi 4 nm dan iborat bwlgan (2.15-rasm).



2.15-rasm. DNK va oqsildan tayyorlangan “wrgamchak” nanoroboti.

Bu nanorobotni avtonom harakatlanish muammosi qanday qilib echilgan? Tadqiqotchilar, DNK zanjiridagi polinukleotidlarni vodorod bog'lari orqali wzlariga komplementar bwlgan zanjir bilan bog'lanish xususiyatidan foydalanganlar. Shuning uchun ham nanorobotni yuradigan oyoqchalari DNK dan konstruktsiya qilingan (2.16-rasm).

“Wrgamchak” ni jasadi “streptavidin” deb atalgan oqsildan shakllangan. **“Wrgamchak”** ni twrtta oyog`idan uchtasi boshqa DNK molekuläsining ketma-ketligi bilan bog`lanaoladigan va uni kesaoladigan DNK molekuläsidan tuzilgan. “Wrgamchak” ni twrtta oyog`i wziga xos yakor` bwlib, u ywlni boshidagi nuqtaga bog`langan bwladi. Robot wzini boshlang`ich DNK ni maxsus zanjiri yordamida harakatga tushadi. Asosiy zanjirdan tashqarida joylashgan DNK uchastkasi bilan bog`lanib, va undan keyin uni kesib, robot (trek) ywl bwylab harakatga tushadi. Bunday nanorobotlarni yaratilganiga bir necha yil bwlganiga qaramasdan, ular hozirgacha bor-ywg`i 3 qadam tashlaganlar xolos. “Wrgamchak” nanoroboti taxminan 100 nm ywl bosib wta oladi (wrgamchakni wzini razmeridan 25 marta, kwproq yoki uni 50 qadami). Bu masofani u, 30-60 minutda bosib wtadi. “Wrgamchak”ni harakatini olimlar Atom-kuchli mikroskop yordamida kuzatganlar. Shu mikroskoplar yordamida, nanorobotlarni har xil twrt ywnalishga ywnaltirish mumkin ekanligi kuzatilgan.

Agar, qurilgan tolani kaltsiy xlorid eritmasiga solib yuvilsa, DNK molekulalarini yanada “tikilishi” sodir bwladi. Natijada nanotolalar qalinlashadi va mustahkamlashadi. Mana shu ywl bilan olingen nanotolalar wzlarining xususiyatlari bwyicha, oqsil tabiatli tolalarga yaqin va ular mushak, arteriya, teri, tog`ay kabi organlarni mustahkamligini va egiluvchanligini ta`minlab beradi.


Shuning uchun ham DNK va uglerodli nanotrubkalardan tayyorlangan sun`iy nanotolalar kelajakda, har xil sun`iy implantantlar yaratishda ishlatalishiga hech shubha ywq.

## **2.4. Biochiplar ha`m olardi DNK strukturasin u`yreniwde qollaniw.**

Eukariot organizmlarda genlarni soni juda ham kwp. Achitqi zamburug`larida 6200 gen aniqlangan bwlsa, odam organizmida ularni soni 20-25000 faol genga teng. Ammo, organizmdagi bor genlarni barchasini, birdaniga (bir vaqtda) wzini faolligini namoyish qilavermaydi. Bir xil genlar faoliyat kwrsatganda, boshqasi boshlanadi va twliq ish faoliyatidan chiqib turadi. Muayyan bir vaqtda, ma`lum bir gen yoki birnecha genlar qanday holatda turibdi, ular faolmilar yoki bloklanganmi? – degan savol juda kwp tug`iladi. Genlarni faolligini nazorat qilish muammosini birinchilardan bwlib, V.A. Engel`gard nomidagi Rossiya Fanlar akademiyasini molekulyar biologiya instituti olimlari echiishga muvofiq bwlganlar. Shu institutda, akademik A.D. Mirzabekov rahbarligida faoliyat kwrsatib kelayotgan bir guruh olimlar, biochiplar yaratish texnologiyasini ishlab chiqdilar.

**Biochip** – bu razmeri bir necha santimetrga teng bwlgan matritsa bwlib, uning yordamida, organizmdagi kwplab genlarni funktsional faolligi haqida ma`lumotlar olish mumkin. Biochip tayyorlayotganda, maxsus (shisha) podlojkaga DNK molekuläsini nusxalari surtiladi. Ular, yoki alohida gen yoki zanjirli polimeraza reaksiyasi (PTsR) natijasida olingen DNK molekulasi bwlishi mumkin. Analiz wtqazish uchun, twqima nusxasi (masalan, qon) oldindan ishlov beriladi. Bu ishlov berish quyidagicha wtqaziladi: Nusxadagi

DNK molekulalarni fluorescentt moddalar bilan maxsus mikrokameraga joylashtirilgan biochipga surtib chiqiladi (59-rasm). Shundan keyin, biochipdagи genlar bilan probada saqlangan fluorescentsiya qiluvchi DNK yoki RNK orasida gibrizatsiya wtaziladi.



2.17-rasm. Biochip yordamida analiz qilish sxemasi.

**Nusxani molekulasi chipdagи tegishli gen bilan komplimentarlik printsipi asosida wzaro munosabatga kirishadi.** Biochipga, ma`lum twlqin uzunligiga ega bwlgan nur berilganda, fluorescent yorug`lik paydo bwladi. Yorug`likni kwrinishiga qarab, pribor – analizator DNK (RNK) dagi harakterli ketma-ketlikni aniqlaydi.

Biochiplardan foydalanish, eng avvalo atrof muhitni negativ ta`siriga sezgir bwlgan genlarni aniqlash va organizmzmn funktsiyasini nazorat qilish uchun istiqbolli hisoblanadi. Biochiplarni ishlatilishi, bakteriya va viruslarni tezkor aniqlash imkonini beradi. Biochip yordamida, odamni individual genetik wziga xosligini wrganish, uni irsiy va onkologik kasallikkarga moyillik darajasini aniqlash imkonini beradi.<sup>2</sup>

### Baqlapw ushin sorawlar:

1. Tiri organizmlardi na`sil, o`zgeriwshen`lik qa`siytsetleri DNK ni qanday unikal qa`sitsetlerine tiykarlanadi?
2. Nanotexnologiyalardi jaratiwshilar ushin DNK ni qanday qa`siyetleri qizig`iw oyatadi?
3. DNK ni o`z-o`zinen ekileniwi protsessinde DNK – polimeraza ha`m DNK – praymaza fermentlarini roli ne?
4. Nuklein kislotalarinin` gibrizatsiyasi metodinin` tiykarinda ne jatadi?

### Paydalanilg`an a`debiyatlar:

<sup>2</sup>[Claudio Nicolini. Nanobiotechnology and nanobioscience.Singapore.: «Pan Standford Publishing Pte. Ltd.», 2009. 965-969 p.].

1. Claudio Nicolini. Nanobiotechnology and nanobioscience. Singapore.: «Pan Standford Publishing Pte. Ltd.», 2009. 363 p.

2. Ehud Gazit. Plenty of room for biology at the bottom: an introduction to Bionanotechnology. London:«ImperialCollegePress», 2007. 181 p.

**3-мавзу: ГЕН ИНЖЕНЕРИЯСЫ УСЫЛЫ ТИЙКАРЫНДАҒЫ  
НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАР. НАДМОЛЕКУЛЯР (СУБКЛЕТКАЛЫ) ДӘРЕЖЕДЕ  
ҚУРАЛғАН ТИРИ СИСТЕМАЛАРДЫҢ НАНОБИОТЕХНОЛОГИЯЛАРЫ.**

***Reje:***

- 3.1. Gen injeneriyasi nanobiotexnologiyasininn `bir bag`dari sипаттада.*
- 3.2. Basqa organizmge kiritiw ushin gen aliw metodlari ha`m genlerdi kletkag`a kiritiw texnologiyasi.*
- 3.3. Kletka plazmolemmalardin` du`zilisi ha`m funktsiyasi.*
- 3.4. Biologik membranalар nanotexnologiyada ha`m олар tiykuarinda strukturalardi konstruktsiyalaw.*

**Tayannish тү sinikler, granlar, integral beloklar lipidli bisloy (lipidli ikki qavat), liposoma, membranalı oqsillar, membranalı organoidlar, nanokompozit materiallar, nanosomalar – (mitsellalar), nanotrubkalar**

***3.1. Gen injeneriyasi nanobiotexnologiyasininn `bir bag`dari sипаттада.***

Zamonaviy bioteknologiyaning – xossa va xususiyatlari odam ehtiyoj va xoxishlariga mos keladigan organizmni yangi shaklini yaratishsiz tavavvur etish qiyin. **Tirik organizmni belgilari va xossalarni qanday qilib wzgartirish kerakki, bu belgilar avlodlarda ham saqlanib qolsin?** Bunga faqat organizmni genotopini ya`ni uni irsiy materialini wzgartirish orqali, erishish mumkin.

**Irsiy materialni (DNK ni) maqsadga muvofiq ravishda wzgartirish va konstruktsiya qilish – bu genetik injeneriya fanining vazifasi.** Gen injeneriya metodlari bilan yaratiladigan DNK molekulasi, rekombinant molekula deb ataladi.

Molekulyar biologiyaning, genetik materialni modda almashinuvi mahsulotlarining biosintezini ta`minlashga qodir bwlgan, yangi kombinatsiyalar yaratish bilan aloqador bwlgan bwlimi, genetik injeneriya deb nom olgan.

**Gen injeneriyasiga kim va qachon asos solgan?** Amerikalik olim P.Berg 1972 yilda laboratoriya sharoitida birinchi bwlib, rekombinant DNK yaratgan kundan boshlab, gen injeneriyasiga asos solingan. Yaratilgan rekombinant DNK, uch organizmni: “SV 40” virusi, “lyambda” bakteriofagi va “ichak tayoqchasi” bakteriyasini DNK fragmentlaridan tuzilgan. Bundan oldinroq 2 unikal tip fermentlar ochilmaganida P. Berg tajribasini wtqazib bwlimas edi.

Bu fermentlar:

1)restriktazalar – DNK molekulasini aniq uchastkadan kesadigan fermentlar;

2) Ligazalar, har xil DNK molekulasini fragmentlarini bir – biriga ulaydigان fermentlar.

Restriktazalar juda ham muvoffaqiyatli nom – “biologik qaychi” degan nom olgan. Bu “qaychilar” yordamida gen injenerlari DNK molekulalarini fragmentlarga kesib, har xil manipulyatsiyalar wtqazadilar. **Gen injeneriyasi**

**bwyicha muvaffaqiyatli tajribalar wtqazish uchun zarur bwlgan ikkinchi sharoit, bu “vektorlardan” foydalanishdir.**

**Vektorlar** – viruslar yoki bakteriyalardan olinadigan qisqa xromosomalardan tashqaridagi DNK fragmenti – **plazmidalar**. Restriktazalar va ligazalar yordamida olimlar vеторларга DNK ni kerak bwlgan fragmentini (gen) kiritdilar. **Vektorni vazifasi – yangi DNK hujayraga kiritish va uni xwjayin – organizm DNK siga joylashtirish.**

### *3.2. Basqa organizmge kiritiw ushin gen aliw metodlari ha'm genlerdi kletkag'a kiritiw texnologiyasi.*

Yangi genetik konstruktsiyalar, DNK molekulasisiga yangi gen (donor – organizmining DNK sini fragmenti) kiritish ywli bilan olinadi. **Shunday “transplantatsiya” uchun genni qanday olish mumkin?**

Hozirgacha bu masalani echishni 3 metodi ma'lum:


1. Gen ajratib olish, tegishli mRNK olishdan kwra qiyinroq bwlganligi uchun, **teskari transkriptsiya reaktsiyasidan foydalanish mumkin**. Uni mohiyati shundan iboratki, revertaza fermenti, RNK molekulalarini matritsa qilib ishlatib, DNK ni sintez qiladi. Revertaza yordamida deyarli har qanday genlarni sintez qilish mumkin. Buning uchun muayyan genga mos keladigan m RNK ajratilgan va tadqiqotni ixtiyoriga berilgan bwlishi kerak. Xuddi shu usulda, odamning kwzi xrustali oqsilini sintezini kodlovchi gen, shuningdek tuxum oqsili, ipak fibroini va boshqa genlari olingan.

2. **Genni sun'iy, kimyoviy sintez ywli bilan olish mumkin.** Bunday sintezni birinchi marta 1969 yilda G. Korana boshchiligida ilmiy kollektiv amalga oshirgan. Dastlab sintez qilingan gen faol chiqmaganligi sababli, bu kollektiv tajribalarni davom ettirishgan va biroz vaqt wtgandan keyin wz maqsadlariga erishganlar – birinchi funksional faol gen sintez qilganlar. Bu gen, ichak tayoqchasini t RNK si ni kodlagen. Hozirgi vaqtida, kwplab genlar kimyoviy sintez ywli bilan olinadi. Ular orasida insulin, somatotropin, somastatin va boshqa gormonlarni sintezini kodlovchi genlar bor.

3. **Tabiiy manba'dan gen ajratish.** Bu juda murakkab vazifa, chunki organizmda faoliyat kwsatib kelayotgan kwp minglab genlar orasidan, yagonasini, muayyan belgini rivojlanishini nazorat qilib turganini ajratib olish kerak. Buning uchun ajratilishi kerak bwlgan genni DNK molekulasida joylashgan joyini aniq bilish kerak va wsha joydan tegishli spetsifiklikga ega bwlgan restriktaza fermenti yordamida kesish kerak. **Kerakli genni qaysi joyda joylashganligini bilish uchun plazmida ishlatiladi.** Plazmida, har xil genlarga kirib olib, ularni mutatsiyasini chaqiradi. **Mutant belgilari bwyicha, kerakli gen kirgan joyni aniqlanadi va uni plazmidadan ajratib olinadi.**

Uzoq vaqt davomida, DNK tarkibidagi kerakli genni aniqlash va uni kesib olish qiyin vazifa bwlgan. DNK spirallari chalkashgan, ularni uzunligi birnecha millimetrdan, birnecha santimetrgacha bwlib, halqaga wralib oladi va wzini genini “bekitishga” harakat qiladi. Diametri 1-2 nanometrغا teng bwlgan, nozik, tez sinuvchi molekulalar, spiralni twg'rilib olish va tarqatishga qaratilgan har qanday tadbirlar, urinishlar ta'sirida tez sinadi. Bunday holatda, kerakli genni

qidirish ywlida bajarilgan ishlar muvoffaqiyatsiz chiqavergan. Shunday qilib, kerakli genni DNK dan ajratib olish muammosi, 20 yildan kwproq vaqtida samara bermagan. Faqatgina XX – asr oxiri va XXI – asr boshlariga kelib, Yaponiyaning Kioto universiteti olimlari, DNK spiralini “optik ombir” lar yordamida chwzish usulini yaratganlar. “Optik ombir” ni ba’zida “optik tutqich” yoki “lazerli pintset” deb ham ataladi. “Optik ombir” – wtkir fokuslangan lazer nurlaridan iborat bwlib, bu nurlar molekulani ushlab qoladi.



3.3-rasm. “Optik ombir” lar yordamida DNK molekulasining chwzish sxemasi

Kwpincha tekshiriladigan molekula oxiriga kimyoviy moddalar yordamida tiniq dielektrik “munchoqchalar” qotiriladi. Bu “munchoqchalar” qandaydir sinish koeffitsienti, muhitga nisbatan yuqori bwlgan polimerlardan tayyorlanadi. Natija beradigan kuch munchoqni lazer nurining intensivligi maksimal bwlgan zonaga ya`ni uni markaziga qarab tortadi. Yaponiya olimlari, “munchoqcha” wrniga “Z” harfiga wxshagan mikroilgak va mikrobbinalar ishlatganlar.

### 3.3. Kletka plazmolemmalardin` du`zilisi ha`m funksiyasi.

Tirik sistemalarning nadmolekulyar (subhujayra) darajadagi struktura va funksional birligi, biologik membranalar, organoidlar va ularni qismlari hisoblanadilar.

Biologik membranalar, hujayrada saqlangan barcha modda, organoid va suyuqliklarni, atrof muhitdan ajratib turadi, hujayrani organoidlarini shakllantiradi. Ular murakkab tarkibga va tuzilishga ega. Biologik membranalarni struktura va funksiyalari haqidagi ma`lumotlar, faqat elektron mikroskopiya tadqiqotlari asosida olingan. Bu tadqiqotlarni S. Zinger va G.

Nikolsonlar 1972 yilda, plazmalemmanni (hujayra membranasini) suyuq-manzarali modelini yaratish bilan, nihoyasiga etkazdilar.

Bu modelga kwra, plazmalemma nima? Plazmalemma (hujayra membranası) – bu hujayrani tashqaridan chegaralab turuvchi sirtqi struktura.

U, hujayrani hujayradan tashqaridagi muhit bilan aloqasini amalga oshiradi. Plazmalemmanni qalinligi, 5 – 10 nm. Plazmatik membranalar asosan 1:1 nisbatda olingan oqsillar va lipidlardan tuzilgan. U, ikki qavat lipid molekulalari yordamida shakllanadi. Lipid molekulalari: gidrofil` (polyar) boshcha va gidrofob (nopolyar) dumdan iborat. Lipidlarni gidrofob dumi, lipidli bisloyni (ikki qavatni) ichiga, gidrofil` boshchalar esa, - tashqariga qarab joylashganlar. Plazmalemmanni lipidlari va oqsillari, gelsimon konsistentsiya hosil qiladilar.

**Membrana oqsillarining tiplari.** Membranada lokalizatsiya bwlgan oqsillar, membranaga spetsifik xususiyat beradi va har xil biologik vazifani bajaradi: wtqazuvchi, ferment, strukturali molekula va x.k. Oqsil molekulalari, lipidli bisloyda manzarali bwlib tarqalgan bwladilar va uning ichida (doirasida, chegarasida) bemalol harakatlanadilar.

Oqsil molekulalari, qanday qilib, lipidli membranani butunligini saqlagan holda bisloyda ushlanib qoladilar? Lipidli bisloyda, oqsil molekulalari, lipid molekulalarini polyar va nopolyar qismlari bilan bwladigan gidrofob elektrostatik va boshqa molekulalararo wzaro munosabatlар tufayli ushlanib turadilar. Shuning uchun ham, oqsillarni, lipidli bisloyda erkin harakatlanganlariga qaramasdan, plazmalemmanning konstruktsiyasi etarli darajada mustahkam bwldi. Tadqiqotchilarni hayratda qoldiradigani, oqsillarni xilma xilligidir. Membrana oqsillari nafaqat tuzilishlari va funktsiyalari, balki joylashishlari bwyicha ham xilma-xildirlar.


### *3.4. Biologik membranalar nanotexnologiyada ha'm olar tiykuarinda strukturalardi konstruktsiyalaw*

Elementar biologik membranalarni lipidli bisloylarini noyob xossalari, biotexnologiya, tibbiyat va sanoat ishlab-chiqarishning har xil sohalarida faoliyat kwsatayotgan olimlar va injener-konstrukturlarni diqqat-e'tiborini wziga tortgan.

**Tirik sistemalarni mana shu nanostrukturalardan sun'iy nanostrukturalar yaratishda foydalansa bwladimi?** Tadqiqotchilar, bisloydagi lipid molekulalarini orientatsiyasiga e'tibor qildilar. Ular, shunday joylashganlarki, ularning molekulalarini nopolyar (gidrofob) dumlar, lipid qavatni ichiga, ya'ni boshqa qavatni lipidlarini dumlariga qarab joylashganlar. Lipid molekulalarini polyar (gidrofil) boshchalar esa tashqariga qarashgan.

**Bisloyni (ikki qavatni) fragmentlari, suvda wzlarini qanday tutadilar?** Olimlar, bisloy fragmentlarini suvga solishib, kichik dumaloq pufakchalar hosil bwlganini kuzatganlar. Pufakchalarni devori, lipidlarni bislatidan tashkil topgan bwlib, ularni polyar boshchalar bir tomonidan suvli

muhit bilan, ikkinchi tomondan esa, pufakchani ichki bwshlig'i bilan chegaralashgan.



*3.13-rasm. Suvli muhitda, lipidli bisloydan liposomani shakllanishi. Devori lipidlardan - 4-tuzilgan bunday dumaloq pufakchalar, liposomalar (grekcha-yog'li jism) deb nomlangan.*

Mitsellalar – lipidlardan tashkil topgan mayda sharikchalar bwlib, ular liposomalardan, ikki strukturali wziga-xoslik bilan farqlanadilar:  
 1 – ular ichki bwshliqqa ega emaslar (suvli idishchasi ywq);  
 2 – tashqi suvli muhittan, nanosomalar (mitsellalar) bir qavatli lipidli devor bilan ajratilgan.

Liposomalarni shakllanish sharoitlarini wzgartirib, olimlar, uni ichiga dorivor moddalar, DNK bwlakchalar va boshqa moddalar kiritish ywllarini topganlar.

#### Baqlaw ushin sorawlar:

1. Tiri sistemanı nadmolekulyar (subkletkali) da'rejede du'zilis struktura-funksional birligi bolip ne xizmet etedi
2. Plazmalemmanni qanday ximiyaliq zatlar payda etedi?
3. Plazmalemmalardi du'zilisin o'zine ta'nligi nede?
4. Membranali beloklardi tiplerin aytin`.

#### Paydalaniman a`debiyatlar:

1. Claudio Nicolini. Nanobiotechnology and nanobioscience. Singapore.: «Pan Standford Publishing Pte. Ltd.», 2009. 363 p.

2. C.M. Niemeyer., C.A. Mirkin. Nanobiotechnology: Concepts, Applications and Perspectives. 2004 WILEY-VCH Verlag GmbH & Co. CGaA, Wienheim. 458 p.

**4-тема: ТИРИШИЛИКТИҢ ПРОКАРИОТ ҲӘМ КЛЕТКАСЫЗ  
ФОРМАЛАРЫ НАНОКОНСТРУКСИЯЛАР ҲӘМ  
НАНОБИОТЕХНОЛОГИЯЛАРДА. БИОРЕАКТОРЛАР ҲӘМ  
БИОКАТАЛИЗАТОРЛАР НАНОТЕХНОЛОГИЯДА.**

*REJE:*

- 4.1.*Prokariotlar nanotexnologiyalarda ha'm olar tiykarinda nanokonstruktsiyalar.*
- 4.2.*Nanobakterin: Haqiqatmi yaki ayirim bir alimlardin` hayaliy adasiwima?*
- 4.3.*Fermentlar (biologik katalizatorlar) ta'biiy nanoob`ektlar sipatinda*
- 4.4.*Mikroorganizmlar – fermentlerdin` bioreaktorlari.*
- 4.5.*Bioreaktorlar, biologik issiliq islep shig`ariwda .*

**Tayanish tu'sinikler:** *bakteriofag, virus kapsi, kapsomerlar, murein, nukleotid, retrovirus, biokataliz, bioreaktor, konstitutiv ferment, nanobioreaktorlar, shaperonlar*

**4.1. Prokariotlar nanotexnologiyalarda ha'm olar tiykarinda nanokonstruktsiyalar.**


Prokariotlar (prokariot organizmlar) – hujayrali organizmlar orasida eng soddalaridirlar. Erda hayot boshlanganidan keyin, 2 mlrd. yil mobaynida, ular hayotning yagona shakli bwlib kelganlar. Prokariotlarni 3000 ga yaqin turi aniqlangan. Ular, tabiatda, bakteriyalar va arxebakteriyalar hamda ularni birhujayrali, koloniyalı va ipsimon shakllari sifatida namoyon bwladilar.

Prokariot hujayralar, eukariotlardan ancha kichik. Ularni wrtacha diametri -0,5-5,0 mkm oralig`ida bwlib, faqat prokariotlarni ba`zi-bir turlarining hujayralari, bundan kwra kattaroq bwladilar. Prokariot hujayralarni tsitoplazmalarida, membranali organoidlar bwlmaydi. Demak, prokariotlarda mitoxondriyalar, Gol`dji apparati, endoplazmatik twr, plastidalar kabi eukariotlar uchun xarakterli bwlgan organoidlar ywq.

**Bakteriyalardan nanobwlakchalar tayyorlashda foydalanish.** Saksoniyani uran konida ishlab kelayotgan, bir guruh Germaniyalik biolog olimlar, “Batsilla sfericheskaya JG-A12” deb nomlangan yangi bakteriya topganlar. Urandan himoyalanish uchun mustahkam sirtqi oqsil qobig`iga ega. Bu qobig`, kwplab nanoteshiklar (nanopora) saqlashi hamda bu nanoteshiklar, bir xil naqsh (kashta, gul) hosil qilib joylanishi bilan farqlanadi.

**Bakteriyani mana shu noyob qobig`idan, nanobwlakchalar tayyorlash uchun qanday foydalanish mumkin?** Bu muammoni echish ywlida, bajarilgan tajribalardan birida, “Batsilla sfericheskaya JG-A12” palladiy metalini tuzini eritmasiga joylashtirilgan. Infra qizil spektrda bakteriya kuzatilib borilgan. Bakteriyani oqsil qobig`i bilan kontaktga kirganda, palladiy tuzlari, toza palladiy metalliga aylanib qolgan. Undan esa, bakteriya qobig`ining

teshikchalarida, 50-80 palladiy atomlaridan tashkil topgan nanostrukturalar shakllanganlar.



4.3-rasm. “*Batsilla sfericheskaya JG-A12*” bakteriya qobig’idagi teshikchalarda shakllangan, palladiyning nanokristallari (qwng’ir rangda tasvirlangan)

Olimlarni hayratga solgani shu bwldiki, bu nanostrukturalarni boshqa usullar bilan olingen palladiyni katalitik faolligidan baland bwlgan.

Laboratoriya tajribalarida, ba’zi-bir bakteriyalar, kimyoviy qaytaruvchi xususiyatga ega ekanligi ham kuzatilgan.

**Bunday bakteriyalar, metall ionlari saqlagan muhitga tushib qolganlarida, wzlarini qanday tutadilar?** Olimlar, bunday bakteriyalarni oltin tuzlarining eritmasiga solib kwdilar va bunda, bakteriyalar, oltin ionlarini yutishlari va ularni, wz hujayralarini tsitoplazmalarida qaytarib, oltinni nanobwlakchalariga aylantirganlarii kuzatganlar. Tsitoplazmada twplanadigan oltinni nanobwlakchalarini diametri 5-15 nm ga teng bwlgan. Wzini shaxsiy “oltin zaxirasiga” ega bwlgan bakteriyalar, wzlarini yaxshi his qilganlar va kwpayishda davom etaverGANLAR. Mana shu metoddan foydalanib, olimlar kumushni nanobwlakchalarini va oltin va kumushni aralashmalarini olishga erishganlar. Bu juda katta yutuq bwlgan, chunki bundan oldin, bunday qisqa diapozondagi razmerli nanobwlakchalarni biologik metod bilan olishga hech kim erishmagan. Bakteriya badanida shakllangan metallarni nanobwlakchalari, har xil nanokonstruktsiyalar va texnologik ishlab-chiqarish sohasi uchun katta qiziqish uyg’otadi.

#### 4.2. Fermentlar (biologik katalizatorlar) ta’biyi nanoob’ektlar sипатинда

**Fermentlarni biologik roli.** Tirik hujayrada, sintez va parchalanish reaktsiyalari, oddiy haroratda va normal bosimda wtadi. Ammo, bunday sharoitda reaktsiya juda sekin wtadi. Hujayra, wzini hayot faoliyatini ta`minlash uchun, bundan kwra yuqoriroq tezlikda wtadigan biokimyoviy reaktsiyalarni talab qiladi.

**Tabiat qanday qilib, tirik hujayralarda sodir bwladigan kimyoviy (biokimyoviy) reaktsiyalarni tezlashtirish muammosini hal qilgan?**

Bunday reaktsiyalarni tezligi, tirik sistemalarda, fermentlar deb nom olgan tabiiy katalizatorlar paydo bwlganidan keyin keskin oshib ketgan. Fermentlar, biokimyoviy reaktsiyalarni wtishini million, hatto milliard martaga oshirib yubora oladilar.

Masalan, katalaza fermentining 1 ta molekulasi, 1 sekundda, hujayralar uchun wta havfli bwlgan vodorod peroksidini 10 000 ta molekulasini parchalash imkoniyatiga ega.

Fermentlarni molekulalari, moddalar almashinuvining barcha jarayonlarini amalga oshirishda va genetik informatsiyani realizatsiyasida ishtirok etadilar. Ovqat hazm bwlish, oqsil moddalarni nuklein kislotalar, yog`lar, uglevodlar va boshqa moddalarni barcha organizmlarni hujayralaridagi sintezi va parchalanishi, fermentlarni ishtirokisiz amalga oshishi mumkin emas. Tirik organizmlarni har qanday funktsiyasini namoyon bwlishi – nafas olish, mushaklarni qisqarishi, kwpayish va boshqalar – fermentlarni ta`siri bilan ta`minlanadi.

Ma`lum funktsiyani bajaruvchi, hujayralarni wziga xos bwlgan xususiyati, asosan, shu hujayradagi fermentlar twplamining faoliyati bilan belgilanadi. Tirik organizmlarda 2000 dan kwproq fermentlar borligi aniqlangan. Birorta fermentni etishmasligi yoki butunlay bwlmasligi, organizm uchun katta zarar keltiradi.

Fermentlarni molekulalari, hujayrani tsitoplazmasida bwlsada, ularni asosiy qismi, ma`lum hujayra orgaoidlari bilan bog`langan bwladi. Aynan mana shu organoidlarda wz ta`sirini kwrsatadi. Masalan, yadroda, DNK sintezi (replikatsiyasi) uchun javob beradigan fermentlar (DNK - polimeraza) uchraydilar. Mitoxondriyada, energiya twplanishiga javobgar fermentlar twplanadilar.

**Fermentlarni strukturasi.** Fermentlarni molekulyar 10000 1 mln gacha. Ular, bir yoki birnecha sub`edinit salardan tashkil topishlari yoki murakkab oqsillar sifatidagi kwrinishga ega bwlishlari mumkin. Murakkab oqsilli strukturaga ega bwlgan fermentlarni molekulalarida, oqsil molekulasidan tashqari (ularni apofermentlar yoki oqsil komponentlari deb ham yuritiladi), kofermentlar (metall ionlari, nukleotidlari, vitaminlar va boshqa past molekulali birikmalar). Apoferment (oqsil komponent) va koferment alohida bwlganlarida, fermentativ faollikga ega bwlmaydilar. Ular, bir-birlariga bog`langanlaridan keyingina, fermentlik xususiyatini oladilar.

Har xil fermentlarni molekulalari, ferment komplekslari shakllanirishlari mumkin. Masalan, bunday komplekslar, hujayra membranalariga hujayra organoidlariga kirib olgan bwlib, moddalarni transportida ishtirok etadilar.

Biokimyoviy reaktsiya jarayonida, wzgarishi lozim bwlgan modda (substrat), fermentni ma`lum qismi bilan bog`lanadi. Substrat bog`lanadigan qismni – faol markaz (aktivniy tsentr) deb ataladi.

### *Bioreaktorlar, biologik issiliq islep shig`ariwda*

Dunyoda uglevodlar zaxirasini chegaralanganligi, sababli, kwplab mamlakatlarda, issiqlik olishni yangi usullarini qidirish ishlarini boshlab

yuborishga majbur qilgan. Shu jumladan tirik organizmlar ishtirokida bioissiqlik olish bwyicha tadqiqot ishlari ham allaqachon boshlab yuborilgan. Mutaxassislarini fikriga kwra, 2050 yilda bioissiqlik, butun dunyoda chiqariladigan issiqliknin choragidan kwproqni tashkil qiladi. **Bioissiqlik olish uchun qaysi organizmlar qulayroq?** degan savol paydo bwlgan.

Kwp olimlarni diqqat e'tiborini kwk-yashil bakteriyalar wziga tortgan. Ayniqsa, ularni hosildorligi va wstirish, kwpaytirish jarayonini oddiyligi, bu bakteriyalarni bunday e'tiborga sazovor bwlishiga sabab bwlgan. Gen-injenerligi metodi yordamida, kwk-yashil bakteriyalarni DNK siga, katta miqdorda etil spirti etanol hosil bwlishini nazorat qiluvchi gen kiritilgan.

Bu gen bilan birga (yonma-yon) shu bakteriyalarni DNK siga «genetik pereklyuchatellar» deb atalgan ikkinchi gen ham kiritilgan. Bu gen, kwk-yashil bakteriyalarni wsishini va kwpayishini chegaralab qwyish xususiyatiga ega bwlgan. Mana shu gen yordamida, bakteriyalarga faqat bir necha kun bwlinishga «ruxsat qilingan». Keyin, «genetik pereklyuchatel» yordamida, bakteriyani kwpayishini sekinlashtirib, butun kuchni etanol ishlab-chiqarishga sarflashga qaratilgan. Bu, bakteriya biomassasining minimal holatida, maksimal miqdorda etanol chiqarishga imkon yaratilgan.

Mana shu bakteriyalar uchun, maxsus fotobioreaktorlar konstruktsiya qilingan. Ular, doimiy ravishda toza suv kirib turishga muxtojlik sezmaydi va unchalik katta joy ham egallamaydi.

Anaerob sharoitda yashovchi boshqa bakteriyalar ham (masalan, klostridiumlar) vodorod chiqarish xususiyatiga egalar. Ichak tayoqchasi va enterobakteriyalardan farqli wlaroq, klostridiumlar, muhitga kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ham ajratadilar. Ular (zaxarlar), stolbnyak, botulizm va gazli gangrena kabi wta havfli kasallikkarni kelib chiqishiga sababchi bwldi. Shuning uchun ham klostridium, vodorodli suyuqliknin istiqboldagi manbai sifatida qaralmaydi.<sup>3</sup>

### **Qadag`alaw ushin sorawlar:**

1. Prokariot organizmlar ne?
2. Prokariot kletkani du`zilisin xarakterlep berin`.
3. Bakteriyalar qanday qilip harakterlanadilar?
4. Bakterial vorsinkalar ha`m pililarni salistirin`
5. Bakteriyalar qanday qilip xojayin organizmine kiredi?

### **Paydalanilg`an a`debiyatralr**

1. Goodsell D.S. Bionanotechnology. Lessons from nature. Wiley-Liss publ., 2004. 337 p.
2. P. Boisseau., P. Houdy., M. Lahmani. Nanoscience: Nanobiotechnology and Nanobiology. Springer-Verlag Berlin Heidlberg - 2010. 1163 p.

---

<sup>3</sup>[Goodsell D.S. Bionanotechnology. Lessons from nature. Wiley-Liss publ., 2004.135-158 p.]

## **5-тәма: НАНОМАТЕРИАЛЛАР ҲӘМ НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАРДЫ ҚӘҮИПСИЗЛИК МАШҚАЛАЛАРЫ. НАНОБИОТЕХНОЛОГИЯНЫ МЕДИЦИНАДА ҚОЛЛАНЫЛЫЎЫ<sup>1</sup>.**

### **REJE**


- 5.1.** *Nanobwlakchalarining tirik organizmlarga ta'sirining wziga xosligi va ta'sir etish mexanizmlari.*
- 5.2.** *Nanobiotexnologiya va nanotibbiyot.*
- 5.3.** *Dori-darmonlarni ywnaltirilgan transportida erishilgan dastlabki yutuqlar.*
- 5.4.** *Virus kasalliklarini diagnostikasida, sun'iy antitelalar olishda va ishlatishda nanobiotexnologiyalar.*
- 5.5.** *Nanotexnologiya asosidagi tibbiyot implantlari.*

**Tayanch iboralar:** oqsillarni agregatsiyasi, diffuziya, konvektsiya, oqsillarni konformatsiyasi, liposoma, oqsillarni modifikatsiyasi, twqima-qon twsig'i, biologik twsiqlar (bar'erlar), antitan, biomaslik, dendrimerlar, immunologiya, makrofaglar, nanotana, nitinol, eleketrospinnin, in vitro, in vivo

### **5.1. Nanobwlakchalarining tirik organizmlarga ta'sirining wziga xosligi va ta'sir etish mexanizmlari.**

Nanobwlakchalar (1-100 nm), tirik hujayralar razmeriga qaraganda ancha kichik. Ular, noyob fizik va kimyoviy xususiyatlarga ega.


**Nanobwlakchalar, tirik hujayralar bilan kontaktga kirib, wzlarini qanday tutadilar?** Razmeri kichik bwlgan uchun, ular yuqori darajada kirish (wtish) va reaksiyon imkoniyatlarga ega. Ular, biologik twqimalar va qon tomirlari (ular birgalikda, twqima-qon twsig'i shakllantiradilar) ni osonlik bilan teshib wtadilar.



*5.1-rasm. Twqima-qon twsig'iorqali kirgan nanobwlakchalar, twsiq (bar'er) hujayrada tutiladilar*

Organ va twqimalarni begona moddalardan himoya qilishga va organizmni ichki muhiti tarkibining doimiyligini boshqarib turishga mwjlallangan.


Nanobwlakchalar oldida twqima-qon bar'eri zaiflik qiladi. Bu esa, immun sistema va odamni butun organizmni uchun katta havf tug'diradi.



5.2-rasm. Nanobwlakchalar, immun sistema hujayrani sirtida adsorbsiya bwldi

Nanobwlakchalar hujayralarda ushlab olinib, hujayra organoidlariga (mitoxondriya, yadro va x.k) tushadilar. Shuning uchun ham yangi nanomateriallar, oldindan aytib bwlmaydigan toksikologik va ekologik xossalar kwsatsishlari (yoki bu xossalarni organizmda yaratishlari) mumkin. Oldindan, mana shular bilan bog'liq bwlgan biologik va ekologik riskni aniqlash va baholash kerak.

**Tirik organizmga tungan nanobwlakchalar qancha uzoq saqlanishi mumkin?** Klemson (AQSh) universiteti olimlari, uglerodli nanobwlakchalarni guruchda saqlanishi va twplanishi haqida birinchi ma'lumotni e'lon qilganlar. Sholi urug'ini  $S_{70}$  uglerod nanobwlakchalar qwshilgan eritmada wstirdilar. Wstirilgandan bir hafta wtgach, uglerodni nanobwlakchalar, sholini ildizida, poyasida va bargida topildilar. Oradan 6 oy wtgach, bunday wsimlikdan sholi urug'i eg'ib olinib, uni normal sharoitda wstirishga qwyilgan ( $S_{70}$  uglerod nanobwlakchalar qwshilmagan). Olimlarni bashoratiga qarshi wlaroq, normal sharoitda wstirilgan, ikkinchi avlod wsimliklarda, uglerodni qora rangli agregatlari, nanobwlakchalar kwrinishida namoyon bwlgan.



*5.3-rasm. Uglerodni nanobwlakchalar bilan ishlov berilmagan “ikkinchi avlodini” bargi (strelka bilan nanobwlakchalar kwsatilgan)*

**Metallarni nanobwlakchalarini ta’siri, ularni organizmga kiritish ywllariga bog’liq ravishda farqlanadimi?** Bu savolga javob topish uchun, laboratoriya sichqonlari, kalamushlari, yirik shoxli hayvon, qush va baliqlarda tajribalar wtqazilgan. Tajribalarni birida, temirni nanobwlakchalar, suspenziya holatida hayvonlarni og`zidan organizmga kiritilgan. Sichqonlarni og`zidan temir suspenziyasi 50 (100 va 500) mkg/ kg yuborilganda, hech qanday toksik samara bermagan. Faqat, 1000, 2000 va 5000 mkg/ kg dozada bwlib-bwlib yuborilganda, oshqozonda va ichakda shamollanish jarayonlari, hamda qon aylanishida wzgarishlar bwlganliklari kuzatilgan.

Tajribalarni ikkinchi seriyasida, temir nanobwlakchalar, hayvonlarga nafas olish ywllari orqali, ingalyatsiya usulida yuborilgan. Kattaligi 22 va 280 nm ga teng bwlgan temir oksidining nanobwlakchalar, 08 va 20 mg/kg dozada kalamushlarga yuborilganda, hujayrada kislorodni faol formasini induktsiyasi (kuchayishi) namoyon bwlgan. Bunda, wpka shishib, uni twqimalari kattalashgan, hamda qonni qotish sistemasi buzilgan.



*5.9-rasm. Temir oksidining nanobwlakchalar (razmeri 22 va 280 nm), 0b 8 va 20 mg/kg dozada nafas olish ywliga kiritilganda faol kislorodni induktsiyasi boshlangan: wpka shishgan, qonni qotishi buzilgan*

Demak, temirni nanobwlakchalarini organizmga nafas olish sistemasi orqali yuborilganda, hayot uchun, ovqat yqli orqali yuborilganga nisbatan havfliroq ekanligi aniqlangan.


**Milliy tashabbuslar.** Nanomateriallar va nanotexnologiya masalalarining havfsizligiga kwplab mamlakatlar qatori, wzbekiston ham qiziqish bilan qaraydi. Garchan bu muammoni echish sohasida qilinadigan ishlar unchalik kwzga kwrinarli bwlmadasa, yaqin kelajakda bu sohaga e’tibor boshqacha kwrinishga ega bwldi. Qwshni, Rossiya mamlakati misolida shuni aytish mumkinki, (bu mamlakatda ham hozircha nanotexnologiya kuchli rivojlangan emas), 2015 yilga kelib, nanoindustriya mahsulotlari sotishga chiqargan hajmi – 300 mlrd rub ga teng bwlishi bashorat qilinmoqda.

Nanotexnologiya sohasida davlat siyosatini hayotga tadbiq etish maqsadida Rossiyada 2007 y-da nanotexnologiya bwyicha korporatsiya tuzilgan. Wsha yildan boshlab, bu sohada nazorat sistemasi tashkil qilingan. Bunda, Rossiya fanlar akademiyasi bilan birga davlat tashkilotlari ishtirok etadilar. 2007 yili Davlat Bosh sanitar vrachining qarori bilan “nanomateriallarni miqdoriy aniqlash va identifikatsiya metodlari, riskni baholash metodikasi, va toksinologik tadqiqotlar kontseptsiyasi” tasdiqlangan. “Kontseptsiya” da nanomateriallarni, nanobwlakchalarni va nanotexnologiyalarni (aniqlash), klassifikatsiya qilish va ishlatish sohalari kwsatilgan. Shuningdek, bu hujjatda, har bir nanomaterialni toksikologiyasini wrganish zarurligi ham kwsatilgan.

## 5.2. Nanobiotexnologiya va nanotibbiyat.

Biologiya va tibbiyotni rivojlanishi, bu sohadagi tadqiqot usullarini kuzatish metodlaridan sekin-asta molekulyar va atomli metodlarga wtib borishi bilan xarakterlanadi. Nanobiotexnologiya metodlarini tibbiyat amaliyotida qwllanilishi, tibbiyotda yangi ywnalish-“nanotibbiyat” ywnalishi paydo bwlishiga olib keldi.

Nanotibbiyat, kasallikkarga diagnoz qwyish va ularni davolashni molekulyar darajada bajarishni taqoza qiladi. Quyida keltirilgan biotexnologiya, nanotexnologiya va tibbiyot wzaro bog`liqligi aks ettirilgan.



5.11-rasm. Biotexnologiya, natexnologiya va tibbiyotna wzaro bog`liqligi.

Nanotibbiyotni metodlari, har xil nanobwlakchaldan ehtiyojli hujayralarga dori moddalarni va DNK fragmentlarini manzilga etkazish maqsadida foydalanishni wz oldiga qwyadi.

Nanotexnologiyalar kerakli preparatni nafaqat hujayraga, balki uni ma`lum qismiga (organoidlariga) ham etkazib bera oladi. Yangi usullar preparatlarni ta`sir davrini chwzish va ularni ikkinchi darajali ta`sirini ancha pasaytirish imkonini ham beradi.

1952 yil P.Flori juda yaxshi shoxlangan polimerlar olish mumkinligini kwsatib bergen. Ammo, ularni sintezini wtgan asrning 80-yillariga kelib,

D.Tomalia, M.N.Bochkareva, A.M.Muzaffarova va boshqalar wzlarining ilmiy maqolalarida e`lon qilganlar.

Hozirgi vaqtda 100 dan kwproq dendromerlar sintez qilingan. Ularni orasida kwproq tarqalgalari poliamidoaminli, fosforli, karboksilanli, polilizinli dendromerlar hisoblanadi. Yuqori darajada shoxlanganligi, dumaloq formasi, katta bwlmagan wlchami (1-100 nm), hamda ularni ishlatalishini engilligi, dendromerlardan keljakda dorilarni manzilga etkazib berish uchun foydalanish istiqbolli ekanligiga asos bwla oladi.

Tashiluvchi moddalar yoki dendromerlar bilan komplekslar hosil qilib, ularni sirtiga bog`lanib oladilar, yoki ularni shoxlari orasiga chuqur kirib oladilar.

Hozirgi paytda dendromerlar dorivor moddalarni, DNKSini, diagnostika moddalarini tashuvchilari sifatida muvaffaqiyatli ishlatalib kelinmoqda.

Bundan tashqari, dendromerlar yordamida shamollahsga qarshi vositalar, mikroblarga va viruslarga qarshi agentlarni tashish maqsadida ham foydalansa bwladi.

**Twqima injeneriyasi.** Bugungi kunda, shikastlangan organlarni tiklash, nafaqat zamonaviy tibbiyotni balki, biologlar, texnika fanlari vakillarini ham diqqatini wziga tortgan, dolzarb muammoga aylangan. Mana shu ywnalishlarni birlashishi natijasida, butunlay yangi tarmoqlararo aro ywnalish – twqima injenerligi shakllandi.

Twqima injenerligini vazifasi – biologik twqimalarni komponentlarini konstruktsiya qilish va ularni tirik organizmga implantatsiya qilishdan iborat.

### **Baqlaw ushin sorawlar:**

1. Ne sebeften nanobo`leksheler, biologik toqimalar ha`m qa`n tamirlarin diywallari arqali jen`il o`tedi?
2. Toqima qan tamir tosig`i arqali o`tken nanobo`leksheler ne boladi?
3. Nanobo`lekshelerdi tiri organizm ushin qa`wipsizligi, olardi qanday qa`siyetleri bar?

Nanobo`lekshelerdi qa`yaipsizligi, olardi razmerine baylanislima?

### **Paydalanilg`an a`deb`iyatlar:**

1. Ehud Gazit. Plenty of room for biology at the bottom: an introduction to Bionanotechnology. London:«ImperialCollegePress», 2007. 181 p.
2. P. Boisseau., P. Houdy., M. Lahmani. Nanoscience: Nanobiotechnology and Nanobiology. Springer-Verlag Berlin Heidlberg - 2010. 1163 p.

## IV. A`MELIY SHINIG`IW MATERIALLARI

### 1-a`meliy shinig`iw. Nanobiotexnologiya-biologiyaniñ rawajlaniwin jan`a basqishi ekenligin u`yreniw.

**Jumistan maqset:** Biologyaning rivojlanish tizimida tirik sistemalarning tuzilish bosqichlari bwyicha asosiy kwnikmalarni takrorlash. Yorug`lik va elektron mikroskopdan nanobiotexnologiyada foydalanish kwnikmalariga ega bwlish.


**Ma`selenin` qoyiliwi** Tinglovchi amaliy mashg`ulotda keltirilgan vazifalarnibajarishi, tahlil qilishi va natija olishi lozim.

#### Jumisti orinlaw ushin lgi:

**1-waziypa.** “Tirik sistemalarni tuzilish bosqichlari” jadvalini twldiring.

Tuzilish bosqichlari	Bosqichning struktura funksional birligi	Shu bosqichda hayotning asosiy atributlari (kwrinishi)

**2- waziypa.** Tasviri keltirilgan biologik struktura ( a - rasm) tirik sistemanini tuzilishini qaysi darajasiga (bosqichiga) twg`ri keladi? Rasmni daftaringizga chizing va uni tagiga wzingiz bilganelementlarni 1-10 raqamlari bilan belgilab keltiring.



**3- waziypa.** Struktura funksional birligi b-rasmida keltirilgan, tirik sistemaning tuzilish bosqichini tavsiflab bering. Uni qanday kimyoviy birikmalar hosil qiladi?

**4- waziypa.** V- rasmida keltirilgan tasvir tirik sistemalar tuzilishini qaysi bosqichiga twg`ri keladi?

**5- waziypa.** Tirik sistemalarni tuzilishini hujayra va organizm bosqichlarini taqqoslang? Bu bosqichlar uchun hayotni qaysi kwrinishi xarakterli? Bu bosqichlarga tirik sistemanı struktura – funksional bosqichi

ierarxiyasining asosiy joylarini kiritish mumkinmi? Hujayra va organizm darajalarini wxshashlik va farqli tomonlarini tushintiring?

**6– waziypa.** Hayotni molekulyar va subhujayrali darajalarini wxshashlik va farqli tomonlarini kwrsating? Molekulyar darajani asosiy molekulalari nimalar? Ular subhujayrali strukturalar tarkibiga kira oladimi? Subhujayra bosqichi nima, u nima uchun “nadmolekulyar” deb ham ataladi? Qanday moddalarni molekulalari hujayrani nadmolekulyar strukturalari (nadkomplekslar) hosil qiladi? Ulardan qaysilarini biologik membranalar tarkibida kwrish mumkin? Qanday moddalar atom-molekulyar komplekslar tarkibiga kirishlari mumkin?

### **Usinis etiletug`in a`debiyatalr:**

1. Ehud Gazit. Plenty of room for biology at the bottom: an introduction to Bionanotechnology. London:«ImperialCollegePress», 2007. 181 p.
2. Claudio Nicolini. Nanobiotechnology and nanobioscience. Singapore.: «Pan Standford Publishing Pte. Ltd.», 2009. 363 p.
3. C.M. Niemeyer., C.A. Mirkin. Nanobiotechnology: Concepts, Applications and Perspectives. 2004 WILEY-VCH Verlag GmbH & Co. CGaA, Wienheim. 458 p.
4. Yubing Xie. The nanobiotechnology handbook. 2013 by Taylor & Francis Group LLC, USA. 649 p.
5. K. Davranov., B. Aliqulov. Nanobiotexnologiya. Toshkent, 2015. 312 b

## 2-a`meliy shinig`iw:

### DNK molekulasin strukturasi ha`m qa`sietleri ha`mde onin` nanobiotexnologiyada qollaniliwin u`yreniw

**Jumistan maqset:** DНK molekulasining nanobiotexnologik tajribalarda qwllash bwyicha asosiy kwnikmalarni takrorlash. Nanostrukturalarni konstruktsiya qilish kwnikmalariga ega bwlish.


**Ma`selenin` qoyiliwi:** Tinglovchi amaliy mashg`ulotda keltirilgan vazifalarni bajarishi, tahlil qilishi va natija olishi lozim.

#### Jumisti alip bariw ushin u`lgi

**1- waziypа.** Keltirilgan sxemani daftaringizga chizib chiqing:

1) Quyidagi rasm tagiga sxemada aks ettirilgan jarayonni nomini yozib chiqing;

2) Rasm sxemadagi Sizga tanish bwlgan strukturalarni belgilab chiqing (kimyoviy birikmalar).




*Rasmda aks ettirilgan jarayonga tirik organizmlarni qanday fundamental xossalari asoslanadi?*

**2- waziypа.** Quyida keltirilgan DНK replikatsiyasi (autoreplikatsiya) bosqichlarini amalga oshirish tartibiga mos ravishda yozib chiqing: РНК – zatravkani sintezi; DНK molekulasini tarqalishi va uni ikki polinukleotid zanjirga ajralishi; Okazaki fragmentlarini yagona polinukleotid zanjirga tikilishi;

**3- waziypа.** Pastda keltirilgan rasmda qanday ikki jarayon sxematik ravishda izohlangan? Har bir jarayonni bosqichlarini yozib chiqing. Har ikki jarayonni bosqichlarini bir-biri bilan taqqoslab chiqing. Har bir jarayonni oxirgi bosqichida hosil bwladigan molekulalar orasidagi printsiplial farqni yoritib

bering. Rasmni chap tomonida keltirilgan sxema asosida XX-asrda molekulyar biologiyada qanday yangilik yaratilgan?



**4- waziya.** Ikki biologik hodisani taqqoslang: DNK ni wz-wzidan ikkilanishi va gibridizatsiyasi. Har ikkala hodisa asosida yotgan jarayonlarni analiz qilib chiqing. Bu jarayonlarda DNK molekulasi qanday holatda bvladi? Wtqazilgan qiyosiy analiz natijalaridan foydalanib, quyida keltirilgan jadvalni twldiring? Siz taqqoslagan va analiz qilgan ikki biologik hodisaning wxshashlik darajasiga wzdingizni bahoingizni bering.

Jadval: **DNK ni wz-wzidan ikkilanishi va gibridizatsiyasi orasidagi wxshashlik va farq.**

	DNK holati va jarayonlarni wxshashligi («+» bilan belgilanadi)	DNK holati va jarayonlarni farqi («-» bilan belgilanadi)
DNK ni dastlabki holati.		
Hodisa tugagandan keyin DNK ni holati:		
a) birinchi holat		
b) ikkinchi holat		
Birinchi jarayon (wzgarish)		
Ikkinci jarayon (wzgarish)		

**5- waziya.** Nanostrukturalarni konstruktsiya qilish bosqichlarini nomini, ularni amalga oshirilishi tartibi asosida qwyib chiqing: DNK ni krestsimon fazoviy strukturasini shakllanishi; DNK fragmentlarini “yopishqoq uchlarini” kleylab chiqish; nanopanjara kubsimon strukturaga qayrilishi; “yopishqoq uchli” DNK fragmentlarini olish; krestsimon DNK tekis nanopanjara tigib chiqish ketma-ketligi.

#### **Uisinis etiletug`in a`debiyatlar:**

1. Ehud Gazit. Plenty of room for biology at the bottom: an introduction to Bionanotechnology. London: «ImperialCollegePress», 2007. 181 p.

2. Claudio Nicolini. Nanobiotechnology and nanobioscience. Singapore.: «Pan Standford Publishing Pte. Ltd.», 2009. 363 p.
3. C.M. Niemeyer., C.A. Mirkin. Nanobiotechnology: Concepts, Applications and Perspectives. 2004 WILEY-VCH Verlag GmbH & Co. CGaA, Wienheim. 458 p.
4. Yubing Xie. The nanobiotechnology handbook. 2013 by Taylor & Francis Group LLC, USA. 649 p.
5. K. Davranov., B. Aliqulov. Nanobiotexnologiya. Toshkent, 2015. 312 b

### 3-a` meliy shinig`iw


